

KO'NGILLI OTINOYILAR PAXTA YIG'IM-TERIMIGA HASHARGA CHIQDILAR



Bugun paxtazorlar oppoq tus olgan. Lo'ppi-lo'ppi ochilgan paxtalar ko'zni quvontiradi. Axir quvonmay bo'ladimi? Bu hosilni yetishtirish, uchun ozmuncha zahmat chekildimi?

Lekin qiyinchiliklar ortda qoldi. Tadbirkor fermerlar fidokorona mehnat qilib, barakali xirmon tiklashga zamin yaratishdi. Endigi asosiy vazifa milliy boyligimiz bo'lган paxtani nest-nobud qilmay, yig'ishtirib olishdan iborat.

Bugun paxtazorlarda hayot qaynamoqda. Paxta hosilini ochiq kunlarda barvaqt yig'ishtirib olish maqsadida ko'ngilli terimchilar dehqonlarga yordamga oshiqmoqdalar.

Tumanimizdagi "Qumtepa Qamishtepa" MMTP hududidagi "Xayotjon Ismoiljon" fermer xo'jaligiga 67 nafar ko'ngilli otinoyilar paxta yig'im- terimiga hasharga chiqdilar. Kun davomida 3 tonna 200 kg paxta terishib, yurtimiz xirmoniga o'z xissalarini qo'shishdi.



Tuman hokimi I.Novikov paxta dalasida bo'lib, hasharchi otinoyilarni taqdirladi. Terimda ishtirok etgan barcha otinoyilar o'zlariga ko'rsatilgan e'tibordan va dalada yaratilgan shart- sharoitlardan mamnun bo'lishdi.

Qo'shtepa tumani hokimligi

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#),

2021-09-19 08:10:14